

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

7/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Umurqulov Kamoliddin
O'ZBEK XALQINING OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI 9-12

Muhamedov Asror
G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR 13-22

Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna
SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA
AMALIYOTLARI 23-30

Сабитова Коринна Сабировна
ШКОЛЬНОЕ И СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В
УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ 31-37

Vaxabov Azizjon Xamidovich
USMONIYLAR SALTANATI VA O`RTA OSIYO XONLIKLARINING O`ZARO DIPLOMATIK HAMDA
ELCHILIK ALOQALARI 38-44

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich
MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI 45-51

Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li, Xurramova Zarina Xolboyevna
QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHIDA TEXNIK SALOHİYATDAN FOYDALANISHNING
IQTISODIY MONIYATI VA NAZARIY ASOSLARI 52-57

Самадов Салохиддин Исмаатович
ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ..... 58-66

Хуррамов Азамат Файзуллаевич
ИНСОН КАПИТАЛИНИ ЖАРАЁН-НАТИЖА ТАМОЙИЛИ АСОСИДА ТАҲЛИЛИ 67-74

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Sharipov Abdukhakimjon Ziyotdinovich
YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATI TARAQQIYOTI IDEOSFERASIDAGI MA'NAVIY O'ZGARISHLAR
DINAMIKASI 75-80

Mustafaev Alimardon Alijonovich
THE MAIN VECTORS OF THE EVOLUTION OF COMPARATIVE PHILOSOPHY IN THE CONTEXT
OF CONTEMPORARY CIVILIZATIONAL DEVELOPMENT 81-89

Mamasaliev Mirzoulug' Mirsaidovich
"G'ARB MADANIYATIDA SABR-TOQAT KONSEPSIYASINING O'ZGARISHI" 90-95

Shadmanov Qurbon
FRENIS BEKON INDUKTIV USULI VA TA'LIM, TARBIYA VA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH
G'OYALARI 96-101

<i>Usmonov Farkhod Lapasovich</i> PHILOSOPHICAL ANALYSIS FREEDOM OF INFORMATION	102-109
<i>Atakulov Mavlonbek Saitkulovich</i> YOSHLARNI SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT ASOSIDA TARBIYALASHDA FUQAROLIK MAS'ULIYATI O'RNI	110-115
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Amanov Abdijabbor Sattarovich</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALAR TAHLILI	116-121
<i>Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna</i> DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI	122-125
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> KONSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI VA KONSEPTGA OID TADQIQOTLAR TASNIFI	126-132
<i>Qodirova Mukaddas Tog'ayevna</i> TILSHUNOSLIKDA BIZNES DISKURS: TADQIQ, TASNIF VA TAHLIL	133-138
<i>Aripova Aziza Xasanovna</i> NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI MASALALARINING TARIXIY TAKOMILI	139-143
<i>Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna</i> QARLUQ SHEVALARIDA TABU VA EVFEMIZMLAR QO'LLANILISHI YUZASIDAN MULOHAZALAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)	144-148
<i>Axmedova Aziza Komilovna</i> PSIXIATRIK BADIY TAHLIL ASOSLARI	149-153
<i>Зокирова Шахзода Нодиржон қизи</i> ТЕЛЕВИЗИОН НУТҚНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ	154-158
<i>Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna</i> METHODS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR IMPORTANCE	159-163
<i>Fayzullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi</i> ADIB QALBIDAN: QAHRAMON RUHIYATIDA YOZUVCHINING IZI.....	164-169
<i>Negmatova Mumtozbeqim</i> UZBEK TERMINOLOGY FOR BANKING SECTOR	170-174
<i>Omondavlatova Latofat Ne'matulla qizi</i> O'TKIR HOSHI MOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN LINGVOMADANIY BIRLIKLER TAHLILI	175-178
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Ismaylov Raxat Aminbayevich</i> NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI	179-183
<i>Сеитниязов Камарбек Парахатович</i> ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	184-191

<i>Нуруллаев Шохрух Шухратуллаевич</i> ҚУРИЛИШДА АТРОФ-МУҲИТНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ: ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ВА НАЗОРАТИ	192-198
<i>Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TARAQQIYOTINING HUQUQIY ASOSLARI	199-210
<i>Шокиров Ойбек Азизжон ўғли</i> ҚОНУНИЙЛИК НАЗАРИЙ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ОРГАНЛАРИ ҚАРОРЛАРИДА ТАЪМИНЛАШНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ	211-218
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Bozorova Muslima Qodirovna, Istamova Dilnoza Norboyevna</i> RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYAT UCHUN KO'P BOSQICHLI TAYYORLASH ASOSLARI	219-222
<i>Rabbimova Nodira Tashtemirovna</i> FROM SCALPEL TO BLACKBOARD: HOW MEDICAL TRAINING IS REVOLUTIONIZING PEDAGOGICAL APPROACHES	223-227
<i>Саидова Камола Усканбаевна</i> КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ МЫСЛИ	228-233
<i>Худойназарова Дилрабо Абдурашидовна</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ	234-239
<i>Гаффаров Азизжон Муҳаммадсаидович</i> МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ: МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ	240-245
<i>Buronova Iroda</i> UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA MEDIAKOMPITENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI	246-250
<i>Matyakubova Feruza Egamovna</i> ANATOMY OF LEARNING: BRIDGING THE GAP BETWEEN MEDICINE AND MODERN EDUCATION	251-254

Received: 10 September 2024
Accepted: 15 September 2024
Published: 25 September 2024

Article / Original Paper

INTERPRETATION OF THE TERM CONCEPT AND CLASSIFICATION OF RESEARCH ON THE CONCEPT

Khayitova Shohida Erkin kizi

Doctoral student of Termiz State University

E-mail: shohida11@mail.ru

Abstract. This article analysis of the definition of the concept, etymology, its forms in different languages, the term conceptosphere, studies on the concept are studied, and a new attitude is given to the opinions expressed by the researchers..

Key words: concept, conceptosphere, linguistics, philosophy, cognitology, the expression of the concept in language.

KONSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI VA KONSEPTGA OID TADQIQOTLAR TASNIFI

Hayitova Shohida Erkin qizi

Termiz davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada konsept tushunchasining ta'rifi, etimologiyasi, turli tillardagi shakllari, konseptosfera termini, konseptga oid tadqiqotlar o'rganilib, tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlarga yangicha munosabat berilgan.

Kalit so'zlar: konsept, konseptosfera, lingvistika, falsafa, kognitologiya konseptning tilda ifodalanishini.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI7Y2024N18>

Kirish. Bizga ma'lumki, *konsept* madaniyatshunoslik, lingvistika, falsafa, kognitologiya va boshqa aspektlarda o'rganilmoqda, provardida turli metodlar, tasniflar, olimlar tomonidan taklif etilmoqda. Konsept lingvokulturologiya va kognitologiyaning asosini tashkil qiladi. Kognitiv tilshunoslikda konsept o'z maqomiga ega ekanligiga qaramay, bu muammo o'z yechimini haligacha topgan deb, ta'kidlash hanuzgacha munozarali bo'lib qolmoqda.

Bir ming to'qqiz yuz yigirma sakkizinchi yili birinchilardan bo'lib, tadqiqotchi S.A.Askoldov o'zining "Концепт и Слово" maqolasida kognitiv lingvistika muammolarining biri sifatida *konsept* so'ziga ta'rif beriladi. Uning izohlashicha, "konsept – fikrlash jarayonida bizga ayni bir turdagi ko'pdan-ko'p predmetlarning o'rnini bosadigan fikr va tasavvurning hosilasidir" [9].

Adabiyotlar tahlili va metadologiya. Ingliz tilining mashhur "Oxford Advanced Learners Dictionary of Current English lug'ati" da *general notion* deya izoh, ta'rif keltiriladi. Bunda *konsept* andazaga, stereotipga, umumqabul qilingan fikr, nuqtai nazarga yaqin turadi.

Konsept tushunchasining mazmu-mohiyatini yaqindan anglash uchun lingvistikada mazkur til birligiga berilgan ayrim ta'rif va tasniflar hamda shu doirada tadqiq etilgan ilmiy tadqiqotlarni tahliliga e'tiborimizni qaratamiz:

Tilshunos V.I.Karasik qayd etishicha, konsept va olam manzarasini anglashda lingvomadaniy yo'nalish maqsadga muvofiq, chunki konsept madaniyatning asosiy birligidir [12]. Bu o'rinda tadqiqotchi konseptni madaniy birlikning asosiy birligi sifatida izohlagan. Darxaqiqat, konseptning lingvomadaniy izohini quyidagicha bayon etish mumkin: **inson ongidagi madaniyat "quyqasi"; olamning milliy manzarasi obrazi; til + tafakkur + madaniyat birligi; qiymat + baho.**

Nemis faylasufi G.Rikkert fikriga ko'ra, fan madaniyatni tabiat belgilaridan farqlamoqchi bo'lsa, avvalambor, qadriyatlar tamoyiliga asoslanishi kerak [6].

Y.S.Kubryakova konseptning tilda ifodalanishini e'tirof etgan holda uni bevosita xotira bilan bog'laydi va xotira birligi sifatida ta'riflaydi: "Konsept – xotiraning faol birligi, mental so'z boyligi, konseptual tizimlar va miya tili, olamning jami manzaralari. Eng muhim konseptlar tilda ifodalangan" [10].

Bizning fikrimizcha, konsept – bilimni aks ettiradigan ma'lumotlarni izohlash uchun xizmat qiluvchi birlik bo'lib, ruhiyatida aks etgan olam manzarasining konseptual tizimi, ya'ni shaxsning dunyo obyektlariga oid tasavvurlari, qarashlari, o'ylari, taxminlari, bilimlar kabilar haqidagi ma'lumotlar majmuasidir. Shu bilan birga, kognitiv tilshunoslikda muhim hisoblangan konseptosfera atamasi – bu milliy konseptlarning jamlanmasi ma'nosini bildiradi.

Rus tadqiqotchisi L.V.Adonina *konsept* atamasiga bag'ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan o'n ikkita izohini keltiradi. Shu bilan birga, uning ilmiy ma'lumotiga ko'ra, *konsept* termini o'z nuqtai nazardan tasnif qilingan. Masalan, *konsept* standartlashishiga ko'ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga; qo'llanishiga ko'ra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko'ra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga ajratiladi.

Biz ham tadqiqotimizning keying bosqichlariga *love/ muhabbat* konseptini konseptual tizim asosida shakllangan mini konseptlarni leksik-frazeologik birliklar va barqaroq birikmalar doirasida chog'ishtirma aspektda tahlilga tortdik.

N.N.Panchenko "aldov" konseptining ifodalanish vositalarini ingliz va rus tili materiallari asosida o'rgangan. Ishda yolg'on va aldov leksemalarining ma'no nozikliklari aniqlangan. "Aldov" konseptining lisoniy va nolisoniy shakllari, ularning semantik xususiyatlari tadqiq etilgan. Shu bilan birga, *yolg'on* va *aldov* leksemalari mantiqiy-falsafiy, etik, ijtimoiy, psixologik, lingvistik jihatdan tahlilga tortilgan [19].

Tadqiqotchi Lyu Szyuan rus va xitoy lisoniy madaniyatidagi "sayoxat" konseptini tadqiq etgan. Dissertatsiyada konsept terminiga oydinlik kiritilib, xitoy tilidagi matnlarda iyerogliflar konseptning asosiy bo'g'ini sifatida keltirilgan. "Sayoxat" konseptini voqelantirishning lisoniy va nutqiy shakllari xar ikki til doirasida aniqlangan. Lisoniy-madaniy konsept sifatida "sayoxat" murakkab mental butunlikni tashkil etishi ta'kidlanib, mazkur xolat obrazli tasvir, tushunchaviy tasvir xamda maqsadli tasvir kabi semantik guruhlarga ajratilgan [15].

A.L.Ignatkinaning nomzodlik dissertatsiyasida esa ingliz tilining amerika va britaniya variantlarida "public relations" (PR - reklama) konseptining ifodalanish xossalarini tadqiq etgan. Mazkur tadqiqotda ingliz tilining xar ikkala variantida mavjud bulgan frazeologizmlar doirasida olib borilgan. Ish ikki bosqichda amalga oshirilgan. Dastlabki bobda konsept

tushunchasi, uning paydo bo'lish va rivojlanish tamoyillari o'rganilgan. Shu qatorida, konseptning milliy-madaniy hamda lisoniy-madaniy xossalari yoritilgan. Keyingi bobda esa "public relations" (reklama)ning ko'p millat va elatlardan tashkil topgan jamiyat hayotidagi ahamiyati hamda milliy, madaniy, etnik xususiyatlari ko'rib chiqilgan [11].

L.V.Babinaning fikriga ko'ra, konseptual derivatsiya kognitiv jarayonni aks ettiradi, inson konseptual tizimida shakllanib bo'lgan bilim asosida yangi konseptual bilim hosil bo'ladi [10]. Haqiqatdan ham konseptual derivatsiya aniq konseptlar o'rtasida aloqa mavjud ekanligini nazarda tutgan holda asosiy konsept va uning zamini asosida paydo bo'lgan konseptlarning o'zaro aloqasini ta'minlaydi.

V.V. Krasnix konseptosferani o'rganish jarayonida "kognitiv makon" atamasini qo'llaydi hamda "individual kognitiv makon" tushunchasi "har bir til sohibi, har qanday so'zlovchi hamda jamoaviy kognitiv makonga tegishli bo'lgan bilim va tasavvurlar majmuasini ma'lum ma'noda tarkiblashtirish, shuningdek, u yoki bu sotsiumga tegishli bo'lgan barcha shaxslar ega bo'lishi mumkin bo'lgan bilim va tasavvurlarni tarkiblashtirish" [13] ekanini tavsiflaydi. Bizningcha, konseptosfera tushunchasi ma'lum xalqqa oid konseptlarning tartibli majmuasi hisoblanadi. Har bir xalq konseptosferasida milliy mentalitetning asosini tashkil etuvchi va yorqin milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan ma'lum konseptlar majmuasi aks etadi. Odatda, bu kabi konseptlarni boshqa tilda ifodalash murakkab va hatto imkonsiz hisoblanadi.

V.Kroft va D.Kruzlarning fikricha, so'z ma'nosi faqat semantikada tug'ilmaydi va shakllanmaydi, balki so'z ma'nosi konseptual darajada o'zining kognitiv tuzilish asosiga ega [3].

M.Jonson, J.Lakofflar fanda tilning aynan konseptlar ko'lami olam lisoniy manzarasining xossalari ochib beradi: konseptlar – jamoaviy ong'dagi ko'p mezonli ma'noviy shakllanishlar bo'lib, o'zining lisoniy qobig'iga ega ekanligini ta'kidlaydi [4]. Demak, milliy konseptosferada milliy mentalitet, millatning fan va madaniyati umumiy ko'rinishda aks etadi. Til esa madaniy konseptosferaning ajralmas bo'lagi sanaladi.

O'zbekistonlik tadqiqotchi D.S.Xudoyberganova konsept – mavhum tushuncha deb, uni bevosita kuzatish mumkin emas deb hisoblaydi [23].

N. Nasrullayevaning "Ingliz tili frazeologik birliklar semantikasidagi gender konsepsiyasi" nomli tadqiqotida ingliz tilining gender belgisi frazeologik birliklar semantikasining konseptuallashtirish jarayoni nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, "Erkak va ayol" konsepti yadrosiga kiruvchi maqomi, mehnat faoliyati, oilaviy ahvoli kabi unsurlari belgilangan [18].

Natija va muhokama. D.A.Tosheva esa keyingi davrlarda o'zbek tilshunosligida semantik aloqadorlikni hosil qiluvchi birliklarni *konsept* asosida tadqiq etish keng yoyilganini qayd etib, o'zining "Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari" nomli tadqiqotida, tilda madaniyatning voqelanishi, aks etishi muayyan nutqiy vaziyatda namoyon bo'ladi. Har qanday muloqot makon va zamoni, so'zlovchi dunyoqarashi va individual xususiyatlarni ifoda etadi. Lingvokulturologiya fanining tadqiq manbai madaniyat elementlarini aks ettirgan lisoniy birliklardan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos urf-odat, an'ana, qadriyat, dunyoqarash hamda milliy madaniy qonuniyatlarni turli darajada ifoda etadi deb, mazkur birliklar qatoriga maqollarni, muayyan mazmuniy maydon doirasida shakllanib, milliy va madaniy qarashlar asosida vujudga kelgan birliklarni kiritish mumkin [22] deb, ta'kidladan. Demak, lingvokul'turologik tadqiqotlarda konseptning ifodalanish muammolariga

katta e'tibor berilmoqda. O'tgan davrdagi imiy tadqiqotlarning ko'p qismida u yoki bu tilda konsept bilan bog'lik masalalar tahlil qilingan.

Sh.S.Safarovning "Kognitiv tilshunoslik" nomli risolasida predmet -hodisalarning ongli idrok etilishi va ularning tasavvurida obraz hosil bo'lish yo'li bilan jamlanadigan bilim turlicha shakllanadi va har xil xarakterga ega bo'ladi. Bu bevosita turli guruhdagi va tuzilishdagi konseptlar shakllanishiga sabab bo'ladi deydi [21].

N.M.Maxmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi xususida shunday deydi "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda ekanligini, so'nggi yillardagi nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlanganligini inobatga olib konsept lingvokulturologiyada eng faol qo'llanuvchi birlik deb hisoblaydi" [16].

A.G.Yuldashevning "Idiomatik qo'shma so'zlarning lingvokognitiv tadqiqi" nomli monografiyasida hozirgi zamon tilshunosligida konsept tabiatini o'rganishda ikkita yondashuv e'tirof etilgan. Ularning biri kognitiv izohga asoslanib, unda insonning bilimi va tajribasi birinchi o'ringa qo'yiladi. Ikkinchisi esa lingvokulturologik birlik sifatida [7].

D.U.Ashurova va M.R.Galiyevalarning "Cognitive Linguistics" nomli o'quv qo'llanmasida ham konsept tabiatini o'rganishda kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar e'tirof etilgan [2].

Tadqiqotchi O.Anarqulova "O'zbek tilida "ota" konseptining lisoniy-kognitiv talqini" nomli tadqiqot ishida konsept va konseptosfera orqali olamning lisoniy manzarasi aniqlanib, tilshunoslikda "oila", "ona", "vatan", "do'stlik", "erkak" kabi konseptlarning leksik, pragmatik, kognitiv jihatlarini ochib berib, tadqiqotning o'rganish obyekti bo'lgan "Ota" konseptining "Qur'oni Karim", "Al Jome' as sahih", "Qur'on qissalari", "Lubobul hadis", "Baxtiyor oila" kabi diniy-ma'rifiy, "O'zbek xalq maqollari", "O'zbek xalq topishmoqlari" kabi xalq og'zaki ijodi namunalari asosida til, tafakkur, ong, lison bilan bog'liq mental, madaniy kognitiv tamoyillari asoslanishi bilan birgalikda ushbu konseptining leksik-semantik qolipi hadislar, xalq maqollari, topishmoqlardagi tushunchalar kesimida ishlab chiqilib "daraxt", "yag'ir", "o'gay" kabi leksik birliklarning badiiy matnda aks etgan pragmatik xususiyatlari keng qamrovli misollar asosida tahlilga tortilgan [1]. Bizni tadqiqotimizda esa *love/ muhabbat* konseptining o'ttizdan ortiq mikro konseptlari aniqlanib, ingliz va o'zbek tillari doirasida tahlil qilingan.

K.Amanullayeva "Badiiy asar konseptosferasi va asosiy konseptlarning tarjimada qayta yaratilishi (Xaruki Murakami asarlari misolida) nomli dissertatsiyasida milliy-madaniy konseptlarning o'ziga xos xususiyatlari ("bo'shliq", "soya") va ularning adabiy asardagi badiiy konseptlarga transformatsiyasi, "yolg'izlik", "kokoro", "sinsin" kabi badiiy konseptlarning ifodalanishi va lisoniy voqelanishi belgilangan hamda tarjima jarayonida ularning kognitiv tarkibi qayta hosil bo'lishini ta'minlovchi usullar shakllantirilganligi, zamonaviy adabiyotshunoslik terminologisi tarkibiga "konsept" tushunchasining kiritilishi badiiy asarni kommunikativ tizim sifatida namoyish etishning yangi imkoniyatlarini ochib berishi hamda matnni konseptual tahlil qilishning istiqbolli yo'nalishlari aniqlanib, ularning har biri badiiy konseptni o'ziga xos xususiyatlarini ma'lum qiyofada aks ettirishi isbotlangan; individual-muallif konseptosferasida yetakchilik qiladigan asosiy konseptlar milliy konseptosferaning alohida qismlarini namoyish etishi isbotlangan [8].

M.Rahmatova "Ingliz, o'zbek va tojik milliy madaniyatida "go'zallik" konseptining lisoniy xususiyatlari" nomli tadqiqotida ingliz, o'zbek va tojik tillari maqollarida aks etgan "go'zallik" konsepti doirasida go'zallik prototip ma'nolarining botiniy go'zallik, zohiriy go'zallik, muhit,

hodisa, predmet go‘zalliklari kabi aksiologik xususiyatlari o‘rgangan. Shu qatorida, chog‘ishtirilayotgan tillarda “go‘zallik” konseptiga oid leksema va frazemalarning paydo bo‘lishi va o‘zgarishi jarayonlarida milliy qadriyatlar ta‘sirining so‘z yasalishidagi derivatsion jihati hamda ingliz, o‘zbek va tojik milliy madaniyadagida go‘zallik, ulug‘vorlik, muhtashamlik kabi estetik qadriyatlarning obrazli jihati “go‘zallik” leksik-semantik maydonini vujudga keltirishi asoslab, sohaga iod konseptining tilda voqelanishida har uchala xalqning etnik xususiyatiga xos tabiat hodisalari, zoonimlar, o‘simliklar dunyosi antroponimlar, taom nomlari, diniy antroponimlar, istorizmlar, uslubiy xos so‘zlar va ijtimoiy mavzularga oid lisoniy birliklarning universal hamda milliy-madaniy xususiyatlarining konseptual izomorfik va allomorfik jihatlari tahlil qilingan [20].

S. Karimovanning “Baxt konseptining badiiy matnda voqelanishi va tarjima muammolari (o‘zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida)” nomli tadqiqotida shaxsning konseptual tizimi shakllanishida lisoniy tarkib muayyan konseptning obrazli, emotsional, assotsiativ bo‘lishini ta‘minlashi va u yadro hamda sarhadga ega bo‘lgan bilimlar, tasvirlar, g‘oyalar, uyushmalar sohasini tashkil qilishida milliy, madaniy-tarixiy va shaxsiy tajriba asosida namoyon bo‘lishi, badiiy konsept tafakkur birligi, ijtimoiy ong, tolerantlik ruhiyati, alohida ijodkor yaratgan matnda lisoniy voqelangan hodisa sifatida kognitiv (mantiqiy)/badiiy konsept oppozitsiyasining asosi ob‘ektivlik/sub‘ektivlik, umuminsoniylik/individuallik belgilariga asoslanganligi hamda poetik matnda “baxt” konseptual metaforasining birma'nolilik va ko‘pma'noliligi, neytral va emotsionalligi, kontekstga bog‘liq va bog‘liq emasligida namoyon bo‘ladigan ichki qarama-qarshiliklarga ularning turli matnlar doirasida kontekstual mazmun kasb etishi, milliy konseptual maydon va mentalitetning ma‘lum bir qismini ifodalashi aniqlangan. Shu bilan birga, “baxt” konseptini adekvat tarjima qilishning birlamchi omillarini matnga xos bo‘lgan intertekstuallik, kontekstual vaziyat, shakl va mazmun mutanosibligi/nomutanosibligi hamda tillararo struktur, sistem va funktsional assimetriya, ikkilamchi omillarini esa uning derivativ tabiati, dinamik xarakteri tashkil etishi isbotlangan [6].

Z.Narmuratovning “Ingliz va o‘zbek tillarida “ta‘lim”, “ilm” konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorligini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya ishida konseptga alohida e‘tibor qaratgan. Unga ko‘ra, konsept insonning olamni idrok etishi jarayonida voqelikning qayta anglanishi natijasida individning konseptosferasida yangi murakkab kognitiv jarayonlar amalga oshadi. Bu jarayonlar konseptual derivatsiya maqomini oladi. Konseptual derivatsiya aniq konseptlar o‘rtasida aloqa mavjud ekanligini nazarda tutgan holda asosiy konsept va uning asosida paydo bo‘lgan konseptlarning o‘zaro ta‘sirini ta‘minlaydi. Shu bilan birga mazkur ishda ingliz va o‘zbek tillaridagi ta‘lim, ilm konseptli paremalarning *teacher/ o‘qituvchi, muallim, student, pupil/ talaba, o‘quvchi, teach, learn/ saboq, lesson/ dars, knowledge / bilim, reading / o‘qish, book / kitob* kabi konseptual tizim asosida shakllangan konseptual guruhlarini aniqlangan [17].

O. Hazratqulovanning “O‘zbek va ingliz tillaridagi paremiyalarda “avf etish” konsepti” nomli tadqiqot ishida ingliz va o‘zbek tillarida maqol, matal, aforizm, frazema, sarlavha, chaqiriqlar kabi turlarining olamning lisoniy manzarasini rivojlantirish va bayon qilishdagi sterotiplar, metaforik so‘zlarni tahlil qilish jarayonida o‘zbek va ingliz tillarida lingvokulturologik birliklarning ifodalanish shakllari konsept tushunchasini o‘rganish va tahlil qilish asosida “avf” konseptining umumiy konseptosferasi shakllantirilgan, chog‘ishtirilayotgan

tillarda “avf” semantik maydoning yadro va periferiyalari o‘rganilgan [5].

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqotlarda turli xil tillarda konsept va konseptual tizim doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borilganligini guvohi bo‘ldik. Ushbu tadqiqotlarda konsept haqida berilgan ta’riflar ham qarashlar ham turlicha ekanligini kuzatishimiz mumkin. Mazkur tadqiqotlarda *go‘zallik, ta’lim, baxt kabi* konseptlari tadqiqi etilgan. Biroq parents/ota-ona konseptini va konseptual tizim nuqtai nazaridan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Anorqulova O.N. O‘zbek tilida “ota” konseptining lisoniy-kognitiv talqini”. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss.. Samarqand, 2023. – 138 b.
2. Cognitive Linguistics [Когнитив лингвистика]. Ўқув қўлланма. Муаллифлар: Ашурова Д.У., Галиева М.Р. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018. – 107 p.
3. Croft W. and D. Alan Cruse. Cognitive Linguistics. – New York: Published in the United States of America by Cambridge University Press, 2004 – P. 30.
4. George Lakoff and Mark Johnson. Metaphors we live by. – London: The university of Chicago press, 2003. – P.38
5. Hazratqulova O. A.O‘zbek va ingliz tillaridagi paremiyalarda “avf etish” konsepti. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss.. Termiz, 2023. – 144 b.
6. Karimova S. S. “Baxt” konseptining badiiy matnda voqelanishi va tarjima muammolari (o‘zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasini misolida). Filol. fanlari falsafa d-ri... diss.. Buxoro, 2023. – 154 b.
7. А.Г.Юлдашев. Идиоматик қўшма сўзларнинг лингвокогнитив тадқиқи. Тошкент: Фан ва технология, 2016. – Б. 98.
8. Амануллаева К. М. Бадий асар концептосфераси ва асосий концептларнинг таржимада қайта яратилиши (Харуки Мураками асарлари мисолида) Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. Самарқанд, 2020. – 158 б.
9. Аскольдов С.А. Цит.по: З.И. Журавлёва. Концепт в лингвокультурологии // II Международная научная конференция «Язык и культура». – М.: Институт иностранных языков, 2003. – С. 261-262.
10. Бабина Л.В. Концептуальные основы словообразования // Когнитивные исследования языка. Вып IV. Концептуализация мира в языке: коллективная монография / гл. ред. Е.С. Кубрякова, отв. Ред. Н.Н. Болдырев. – М.: Ин-т языкознания РАН; Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2009. – С. 132
11. Игнаткина А.Л. Специфика репрезентации концепта public relations фразеологическими средствами американского и британского вариантов английского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. - Саратов, 2005. – 220 с.
12. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. 2-е изд. – М.: Гнозис, 2004.– С.96
13. Красных В.В. Понятие концептосферы.- М.: Изд-во МГУ, 2003.- С 61.
14. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г, Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.,
15. Лю Цзюань Концепт «путешествие» в китайской и русской лингвокультурах: Дисс... канд. филол. наук. Волгоград, 2004. – 171 с.
16. Махмудов Н.М. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. -№ 5. – Б. 9.
17. Нармуратов З.Р. Инглиз ва ўзбек тилларида таълим ва илм концептларига оид паремаларнинг лингвомадания тадқиқи. Филол.фанлари фалсафа доктори дисс. Термиз, 2022. – 129 б.

18. Насруллаева Н. З. Инглиз тили фразеологик бирликлар семантикасидаги гендер концепцияси. Филология фанлари докторлик диссертацияси. Тошкент, 2016. – 230 б.
19. Панченко Н.Н. Средства объективации концепта «обман» (на материале английского и русского языков): Дисс...канд. филол. наук. Волгоград, 1999. – 237 с.
20. Рахматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Фалсафа докторлиги (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2019. – 150 б.
21. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик.– Жиззах: “Сангзор” нашриёти, 2006 – Б.17.
22. Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. Тошкент, 2017. – 151 б
23. Худойберганова Д.С. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент, Фан. 2013. – Б. 41.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/7 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).